

MUSIQA RAHBARI VA TARBIYACHINING HAMKORLIGI

O.Sobirova

Qo'qon davlat universiteti o'qituvchisi (PhD)

ANNOTATSIYA; Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa rahbari va tarbiyachining o'zaro hamkorlik faoliyatining pedagogik, psixologik hamda ma'naviy jihatlarini tahlil qilingan. Musiqa mashg'ulotlarini tarbiyaviy jarayon bilan uyg'unlashtirish orqali bolalarda estetik did, ijobiy xulq, ijodkorlik va milliy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirishning samarali yo'llari yoritilgan. Shuningdek, maqolada hamkorlik jarayonining metodik asoslari, samaradorligini oshirish omillari va amaliy tavsiyalar keltiriladi.

KALIT SO'ZLAR; Musiqa rahbari, tarbiyachi, hamkorlik, estetik tarbiya, ijodkorlik, musiqiy rivojlanish, metodika, pedagogik jarayon, bolalar jamoasi, musiqiy madaniyat.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya tizimida olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadi – barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning ma'naviy, aqliy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama kamol topishini ta'minlashdan iborat. Shu jarayonda maktabgacha ta'lim muassasalari (DMTT) muhim poydevor vazifasini bajaradi, chunki aynan shu bosqichda bolalarda shaxsiy sifatlar, dunyoqarash, estetik did va madaniyat asoslari shakllanadi. Maktabgacha ta'limda olib borilayotgan har bir mashg'ulot, xususan, musiqa ta'limi va tarbiyasi, bolaning ichki dunyosini boyitishda, his-tuyg'ularini ifoda etishda, go'zallikni anglash va qadrlash ko'nikmalarini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Musiqa nafaqat estetik zavq manbai, balki tarbiya vositasi sifatida ham katta tarbiyaviy kuchga ega. Shu bois, DMTTlarda **musiqa rahbari** bilan **tarbiyachining o'zaro hamkorligi** — bolalarning musiqiy va

ma'naviy rivojini ta'minlovchi eng muhim pedagogik shartlardan biri hisoblanadi.

Musiqqa rahbari bolalarga qo'shiq aytish, musiqani tinglash, ritmik harakatlar, o'yinlar orqali estetik zavq olishni o'rgatadi. Tarbiyachi esa o'zining kundalik tarbiyaviy faoliyati davomida musiqqa rahbari tomonidan berilgan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlaydi, bolalarda musiqqa nisbatan qiziqish va ijodiy faollikni qo'llab-quvvatlaydi. Ular birgalikda har bir mashg'ulotni bolalar yoshiga, psixologik xususiyatlariga mos tarzda tashkil etib, tarbiya va musiqani yagona, uzviy jarayonga aylantiradilar.

Shuningdek, musiqqa rahbari va tarbiyachining samarali hamkorligi orqali bolalarda:

- o'zaro do'stona munosabat, jamoada ishlash madaniyati;
- estetik zavq olish, go'zallikni qadrlash;
- musiqiy eshitish, ritmni his etish va ifoda qilish;
- xalq qo'shiqlari, milliy kuylar orqali vatanparvarlik, mehr-oqibat, hurmat va e'tiqod hissi shakllanadi.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim konsepsiyasida ham o'qituvchi va tarbiyachilar faoliyatida hamkorlik, integratsiyalashgan yondashuv asosiy tamoyillardan biri sifatida belgilangan. Bu jarayon bolalar shaxsini rivojlantirishda yagona maqsad – **“har tomonlama barkamol insonni tarbiyalash”** g'oyasiga xizmat qiladi. Shu bois musiqqa rahbari va tarbiyachining o'zaro hamkorligini ilmiy, metodik va amaliy jihatdan chuqur o'rganish bugungi kunda dolzarb pedagogik masalalardan biridir. Shunday qilib, mazkur mavzu doirasida olib borilayotgan tadqiqotlar musiqqa ta'limini tarbiyaviy jarayon bilan uyg'unlashtirish, pedagoglarning hamkorlik madaniyatini rivojlantirish, bolalarda musiqiy-estetik dunyoqarashni shakllantirish hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ta'lim-tarbiyaning barcha bosqichlarida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, estetik did va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi

bolalarda musiqaga bo'lgan mehrni uyg'otish, ularning ruhiy olamini boyitish va milliy qadriyatlarni singdirishda musiqa rahbari bilan tarbiyachining hamkorligi alohida o'rin tutadi. Musiqa rahbari bolalarga musiqiy bilim, qo'shiq aytish, ritmni his etish ko'nikmalarini berar ekan, tarbiyachi esa bu bilimlarni kundalik tarbiyaviy faoliyatda mustahkamlab boradi. Shu tariqa, ikki mutaxassisning uyg'un faoliyati bola shaxsining estetik, axloqiy va emotsional rivojiga xizmat qiladi. Shuning uchun ham musiqa rahbari va tarbiyachining o'zaro hamkorligini tashkil etish, ularning o'quv-tarbiyaviy jarayonda bir-birini to'ldiruvchi rolini aniqlash - zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimining dolzarb masalasidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maktabgacha ta'lim tizimi so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida tubdan yangilanish jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Davlat siyosati darajasida bolalarni har tomonlama kamol toptirish, ularning qobiliyat va iste'dodini erta aniqlash hamda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan musiqa ta'limi ham maktabgacha ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Bu borada **musiqa rahbari** va **tarbiyachining hamkorligi** bolalar shaxsini ma'naviy, estetik va emotsional jihatdan rivojlantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'plab mahalliy va xorijiy pedagoglar o'z asarlarida musiqaning tarbiyaviy, estetik va ijtimoiy ahamiyatini chuqur asoslab berganlar. Masalan, **A. Avloniy** o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida "tarbiya — biz uchun hayot-mamot masalasi" deya ta'kidlab, tarbiyaning har bir yo'nalishi, xususan, estetik tarbiya insonni komillikka yetaklovchi muhim vosita ekanligini ko'rsatib o'tgan. Unga ko'ra, musiqa va san'at inson qalbini poklaydi, ruhiy olamni yuksaltiradi. **K.D. Ushinskiy, L.S. Vygotskiy va J. Piaget** kabi psixolog-pedagoglar esa bola shaxsining shakllanishida musiqaning emotsional ta'siri va tarbiyachining roli beqiyos ekanligini asoslab berishgan. Vygotskiy nazariyasiga ko'ra, bola musiqani nafaqat eshitadi, balki u orqali his qiladi, shaxsiy kechinmalarini ifoda etadi. Shu sababli pedagoglar, ayniqsa tarbiyachilar, bolalar

bilan ishlashda musiqa rahbari bilan uzviy hamkorlikda faoliyat yuritishlari zarur. O'zbekiston olimlari orasida **M. Mamatov, G. Sharipova, R. Xudoyberganova, S. To'xtayeva, N. Komilova** kabi mutaxassislar musiqa ta'limining mazmuni, metodikasi va tarbiyaviy imkoniyatlarini chuqur o'rganishgan. Ularning tadqiqotlarida musiqa rahbarining vazifasi — bolalarda musiqiy eshitish, ritmni his qilish, estetik zavq olishni shakllantirish; tarbiyachining vazifasi esa — bu ko'nikmalarni kundalik faoliyatda mustahkamlash, bolalarning shaxsiy tajribasiga aylantirishdan iboratligi qayd etilgan. Metodik manbalarda qayd etilishicha, musiqa rahbari va tarbiyachining faoliyati o'zaro uyg'unlikda kechgan taqdirida ta'lim-tarbiya jarayoni yanada samarali bo'ladi. Masalan, musiqa mashg'ulotlarida o'rganilgan qo'shiq, harakatli o'yin yoki raqs elementlarini tarbiyachi ertalabki mashg'ulotlarda, erkin o'yin jarayonida yoki bayram tadbirlarida takrorlasa, bola bilimini mustahkamlaydi, musiqiy eshitish va xotirasini rivojlantiradi.

Metodologik jihatdan, tadqiqot quyidagi asosiy yondashuvlarga tayangan:

1. **Pedagogik yondashuv** - musiqa rahbari va tarbiyachining hamkorligini ta'lim-tarbiyaning uzviy jarayoni sifatida o'rganish.
2. **Psixologik yondashuv** - bolalarning musiqiy qobiliyatlari, emotsional holati va individual rivojlanish xususiyatlarini inobatga olish.
3. **Madaniy-tarixiy yondashuv** - milliy musiqa merosini (maqom, xalq qo'shiqlari, bolalar kuy-qo'shiqlari) tarbiyaviy jarayonga tatbiq etish.
4. **Integrativ yondashuv** - musiqa mashg'ulotlarini nutq, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya bilan uyg'unlashtirish orqali bolaning kompleks rivojlanishini ta'minlash.
5. **Amaliy-empirik yondashuv** - MTMLarda kuzatuv, suhbat, eksperiment asosida musiqa rahbari va tarbiyachining hamkorlik faoliyatini tahlil qilish.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun musiqa rahbari va tarbiyachi o'z faoliyatida yagona maqsad va metodik yo'nalish asosida ishlashi zarur. Ularning hamkorligi o'zaro ishonch, ijodiy yondashuv va doimiy pedagogik muloqotga tayanishi kerak. Shu bois, adabiyotlar tahlili va metodik tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, musiqa rahbari va tarbiyachining faol hamkorligi bolalarning musiqiy rivojlanish sur'atini oshiradi, ularning hissiy-intellektual dunyosini boyitadi va shaxsiy kamolotiga mustahkam zamin yaratadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, musiqa rahbari va tarbiyachining muntazam hamkorligi quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi: Bolalarda musiqiy sezgi va ritm tuyg'usi rivojlanadi ular qo'shiq, raqs, o'yin jarayonida o'zini erkin ifoda eta oladi. Tarbiyaviy jarayonlarda musiqa ahamiyati ortadi musiqa nafaqat estetik vosita, balki axloqiy tarbiya manbai sifatida qo'llaniladi. Hamkorlikda o'tkazilgan mashg'ulotlar bolalarda jamoaviylik, mehr-shafqat, o'zaro hurmat tuyg'ularini shakllantiradi. Musiqa rahbari va tarbiyachining metodik birligi ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi. Bolalarda ijodkorlik va tashabbuskorlik rivojlanadi, ularning sahna madaniyati va chiqish madaniyati mustahkamlanadi. Amaliy kuzatuvlar natijasida aniqlanishicha, musiqa mashg'ulotlarini tarbiyachining tarbiyaviy faoliyati bilan uyg'unlashtirgan guruhlar bolalarning musiqiy bilim darajasi va intellektual faolligi yuqori bo'lgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa rahbari va tarbiyachining o'zaro hamkorligi — bolaning har tomonlama shakllanishi, estetik dunyoqarashi va ma'naviy kamolotini ta'minlovchi eng muhim pedagogik omillardan biridir. Ushbu hamkorlik nafaqat musiqiy bilim va ko'nikmalarni egallashga, balki bolaning hissiy-irodaviy sifatlarini, ijodiy tafakkurini va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Musiqi rahbari va tarbiyachi o'zaro hamkorlikda bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda musiqiy mashg'ulotlarni, o'yinlar va tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etadilar. Bu jarayon bola uchun musiqani nafaqat eshitiladigan san'at turi, balki his etiladigan, hayot bilan bog'langan, tarbiyaviy kuchga ega hodisa sifatida idrok etish imkonini beradi. Pedagogik amaliyotlar shuni ko'rsatadiki, agar musiqa rahbari va tarbiyachi o'rtasida tizimli, ijodiy va doimiy hamkorlik yo'lga qo'yilsa, bolalarda musiqiy eshitish, ritmni his etish va estetik zavq olish ko'nikmalari shakllanadi. Ularning nutq, harakat, diqqat va tafakkur rivojiga musiqaning ijobiy ta'siri kuchayadi. Jamoaviy faoliyat, o'zaro hurmat, do'stlik va yordam kabi axloqiy fazilatlar mustahkamlanadi va milliy qadriyat va an'analar musiqiy tajriba orqali bolalarning ongu tafakkuriga chuqur singadi. Musiqa rahbari va tarbiyachi faoliyatida uzviylik, metodik birlashuv va doimiy muloqot mavjud bo'lsa, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Bunday hamkorlik bolalarda faqat musiqiy saviyani emas, balki ma'naviy-axloqiy fazilatlarini ham rivojlantiradi. Shunday qilib, musiqa rahbari va tarbiyachining uzviy hamkorligi maktabgacha ta'lim tizimining asosiy maqsadi **barkamol shaxsni tarbiyalash** yo'lida eng muhim metodik, pedagogik va insonparvarlik asoslaridan biri sifatida e'tirof etilishi lozim. Demak, musiqa rahbari va tarbiyachining ijodiy hamkorligi - maktabgacha ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u kelajak avlodni estetik jihatdan yetuk, ma'naviy barkamol va musiqiy saviyali shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nurmatov X. «O'zbek xalq musiqasi» O'quv qo'llanma. – Toshkent. O'qituvchi nashriyoti, 1998.
2. Sh, Jumaboyeva M. "FORMING THE CHILD'S PERSONALITY IN THE PROCESS OF ACQUIRING MUSICAL KNOWLEDGE." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 3.11 (2022): 128-132

3.SHAVKATOVNA, DJUMABAEVA MUQADDAS. "The Importance of the Sound of Tones in Instilling Elements of National Spirit in the Hearts of Students." *JournalNX* 7.02: 151-153.

4.EB Kobilova.Classical music and youth education Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities 12 (9), 126-13047

5.QEZ BAKIROVNA.Forming a sense of internationality in students through the traditional music of Azerbaijan International bulletin of applied science and technology.IBAST volume issue ...

6.QEZ BAKIROVNA.FORMING A SENSE OF PATRIOTISM IN STUDENTS THROUGH THE LIFE AND WORK OF COMPOSER DONI ZAKIROV Published by International journal of Social Sciences & Interdisciplinary ...

7.EZ QOBILOVA.Forming A Sense Of Love For The Profession By Teaching Labor Songs To 4th Class Students In Music Culture Lessons.journal of Positive School Psychology 7 (2)

8.М Азизхонова, Э Қобилова.ЁШЛАРНИ МУСИҚИЙ МАДАНИЯТИ ВА МАЎНАВИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА МУСИҚИЙ ТАРБИЯНИНГ АҲАМИЯТИ Oriental Art and Culture 3 (1), 51-57

9.QE Bakirovna.Theoretical And Methodological Basis Of Overcoming Contradictions In Modern Musical And Educational Practice.Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching 1 (1), 117-120

10.E Kobilova, O Sobirova, F Najmiddinov.The importance of music education in the formation of musical culture and spirituality.Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal 11 (1), 698-703

11.Q Bakirovna, DM Shavkatovna, BS Imomalaiyevich, TO Tursunovich.

THE ROLE OF A MUSIC TEACHER IN THE PROCESS OF EDUCATING CHILDREN'S MORAL FEELINGS.International Journal of Early Childhood Special Education 14 (6)

12.M Azizkhonova, E Qobilova.IMPORTANCE OF MUSIC EDUCATION IN FORMING YOUTH'S MUSICAL CULTURE AND SPIRITUALITY.Oriental Art and Culture 3, 51-57

13.E Qobilova.THE PLACE OF FOLK SONGS IN ISAJAN SULTAN'S STORIES

American Journal Of Social Sciences And Humanity Research 4 (02), 44-49

14.E Qobilova. THE IMPORTANCE OF MUSIC TEACHING IN EDUCATION. QO 'QON UNIVERSITY NEWSLETTER, 12, 99–100

15.EB Qobilova.MORAL EDUCATION AS AN IMPORTANT FAKTOR IN THE FORMATION OF A STUDENT AS A PERSON

Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities 11 (26), 186-189

16.QEZ BAKIROVNA. The Significance Of Interdisciplinary Connection In The Formation Of Music Literacy In Children With Hearing Defect In Music Lessons ONOMÁZEIN 62 1 (62), 1382-1388

17.QEZ BAKIROVNA.Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirish.Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 3 (3), 722-729

18.E Qobilova.Yoshlarda musiqiy madaniyatni shakllantirishda maktab va oila hamkorligining tarbiyaviy ahamiyati.Qo 'qon DPI. Ilmiy xabarlar

19.M Azizxonova, E Qobilova.YoSHLARNI MUSIQIY MADANIYATI VA MA'NAVIYATNI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQIY TARBIYANING AHAMIYATI.Oriental Art and Culture 3, 51-57

20.ЭБ Қобилова.ФОРМИРОВАТЬ ДУХОВНОЕ МИРОВОЗЗРЕНИЕ
ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ ФОЛЬКЛОРА ЖАНРА

Oriental Art and Culture 3 (1), 291-295

21.E Qobilova.MUSIQA ONG VA HISLAR O 'RTASIDAGI
VOSITACHIDIR

Pedagogikada ilmiy izlanishlar 2 (1), 28-31

22.QEZ BAKIROVNA.QADIMIY MUSIQIY SAN'ATNING
SHAKLLANISH JARAYONI.“RAQOBATBARDOS H KADRLAR
TAYYO RLAS HDA FAN – TA'LIM – IS HLAB CHIQARIS H ...

23.E Qobilova.Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari

Oquv qollanma, Fargona.“Fargona” nashriyoti

24.Jo'rayev M. O'zbek xalq taqvimi va mifologik afsonalar. – Toshkent,
1994.